



## **TALABALARDA VATANPARVARLIK FAZILATINI RIVOJLANTIRISHGA TEKNOLOGIK YONDOSHUV: MAZMUNI VA ASOSIY TUSHUNCHALARI**

## **РАЗВИТИЕ ПАТРИОТИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА: СОДЕРЖАНИЕ И ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ**

### **DEVELOPING PATRIOTISM IN STUDENTS THROUGH TECHNOLOGICAL APPROACH: CONTENT AND KEY CONCEPTS**

**Mirzakarimov Xudaberdi Yusupovich**

*Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali jismoniy tarbiya,  
sport nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi o‘qituvchisi*

*E-mail: xudaberdimirzakarimov@gmail.com / Tel:(+998-90) 535-94-86*

*ORCID: https://orcid.org/0009-0001-9472-854X*

#### **Annotatsiya.**

*Mazkur maqolada talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirishda ta’lim va tarbiya jarayoniga texnologik yondoshuvning pedagogik jixatlari va innovatsion yondoshuvning asosiy tushunchalari haqidagi ma’lumotlar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** Vatanparvarlik fazilati, texnologiya, texnologik yondoshuv, innovatsiya, integratsiya, o‘qitishning maqsadi.

#### **Аннотация.**

*В данной статье представлена информация о педагогических аспектах технологического подхода к учебно-воспитательному процессу и основных концепциях инновационного подхода в развитии патриотизма у учащихся.*

**Ключевые слова:** Патриотическая добродетель, технологии, технологический подход, инновации, интеграция, цель образования.

#### **Annotation.**

*This article provides information about the pedagogical aspects of the technological approach to the educational process and the basic concepts of the innovative approach in the development of patriotism among students.*

**Key words:** Patriotic virtue, technology, technological approach, innovation, integration, purpose of education.

## KIRISH

Amalga oshirilayotgan pedagogik faoliyat turlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda, o‘qituvchining kreativ-pedagogik kompetensiyasining ma’lum bir qismi sifatida bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ko‘plab kompetensiyalarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin. Masalan, o‘quv, o‘quv-uslubiy, tashkiliy, ilmiy-tadqiqot, AKTdan foydalanish, o‘z-o‘zini tarbiyalash kompetensiyasi va boshqalar.

Talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish ijodkorligining ortishi innovatsion faoliyat tufayligina amalga oshadi. Bu o‘z navbatida o‘quv jarayoni, ilmiy va ishlab chiqarish muhiti integrasiyasini sifatida intellektual mehnat orqali o‘z hayotiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini beradi. Innovatsiya – (inglizcha innovation – yangilik kiritish) tizim ichki tuzilishini o‘zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o‘z ichiga oladi (ilmiy g‘oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish). Tarbiya jarayoniga innovatsion yondoshuv esa, ilmiy g‘oyalar va ularning texnologiyalarini tarbiya amaliyotiga kiritish orqali, uning samaradorligi va ta’sirchanligini oshirihda namoyon bo‘ladi.

Shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatib kelingan edi. Bunday usul talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so‘ndirar edi. Pedagog-olimlar yillar davomida ta’lim tizimida “Nega o‘qitamiz? Nimani o‘qitamiz? Qanday o‘qitamiz?” savollariga javob izlash bilan bir qatorda “Qanday qilib samarali va natijali o‘qitish mumkin?” - degan savolga javob qidirdilar. Bu esa, olim va amaliyotchilarni o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya’ni o‘qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko‘rish mumkin, degan fikrga olib keldi (1-rasm).



**1-rasm. O‘qitish jarayonining sxemasi**

Dunyoning turli mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotchilar ta’limda integratsiyalarni qo‘llash bo‘yicha har doim izlanishlar olib borishgan. Ular “Integratsiya”, “Interfaol

metodlar”, “Innovatsion texnologiyalar”, “Innovatsion yondashuvlar” to‘g‘risida yaxshi axborotlar yig‘ishgan.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Innovatsiya (inglizcha) fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo‘llanilishi amaliyatda ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanma bo‘lib, unga ingliz professori V.R. Spenser “Innovatsiya – bu aniq vaziyatda mutlaqo yangi narsa, biz buni anglaganimizda foydalanishimiz mumkin” deb ta’rif beradi. Rossiyalik olimlar A.Kulagin “Innovatsiya – bu innovatsion, ishlab chiqarish, institutsional moliyaviy, ilmiy-texnik va boshqa sohalardagi yangilikdir” deb ta’rif beradilar. D.Forining “Innovatsion imkoniyatlar – bu muntazam ravishda kombinatsiyalashgan bilimlarni kashf qilish, ulardan foydalanish demakdir. Bunda kombinatsiyalashgan jarayonlarda asosiy e’tibor beriladigan jihat – bu bilimdir” deb ta’kidlaydi. J.Yo‘ldoshev “Innovatsiya – tizim ichki tuzilishni o‘zgartirish amaliyot va nazariyaning asosiy qismi”, innovatsion faoliyat esa, “yangi ijtimoiy talablar bilan a’nanaviy me’yorlarning mos kelmasligi. Amaliyotning yangilanayotgan me’yorlarni mavjud me’yorlar bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muommalmarni yechishiga qaratilgan faoliyat” deb ta’kidlaydi. Pedagogik nuqtayi nazardan esa innovatsiya-ta’lim va tarbiya jarayoniga ijodiy yondoshuv demakdir.

## **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Keyingi yillarda integratsion yondashuvlar asosida ta’limni amalga oshirishga oid ilmiy –metodik tadqiqotlar va ta’limni amalga oshirish tajribalari bu muammoni hal qilish mumkinligini ko‘rsatmoqda Masalan, integratsion yondashuvlar asosida pedagogik texnologiyalarning “G‘oyalarni rag‘batlantirish”, “Pinboard”, “Klaster”, “Loyihalash”, “Assesment”, “Keys-stadi” texnologiyalari asosida talabalarning mustaqil ta’limini amalga oshirilmoqda.

Ta’lim va tarbiya jarayoniga innovasiyalarni qo‘llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:



Ta’lim jarayoniga innovasiyalarni qo’llash bo‘yicha vazifalar;

Xorij ta’limida integratsion yondashuvlarni qo’llash bo‘yicha quyidagi innovation pedagogik texnologiyalarga oid ma’lumotlarga to‘xtalishni joiz deb bildik.

## XULOSA

Har bir fanni o‘qitishni boshlashdan avval, shu fanni o‘qitishning metodik sistemasini modelini yaratish lozim. O‘qitish maqsadini aniqlamasdan turib tayanch modelni yaratish mumkin emas. Demak, yuqorida aytilganlarni inobatga olgan holda o‘qitishning metodik sistemasi mazmuni quyidagi ishlanmalarda o‘z aksini topadi:

- o‘qitish maqsadini aniq ifodalash;
- nazariy va amaliyot uchun tanlangan materiallarni talabalarga yetkazishning aniq hamda talab darajasini aniqlash;
- har bir mavzuni tayanch tushunchalari, glossariylarini aniq ajratish;
- o‘qishga qiziqtirishga yo‘naltirilgan usul va interaktiv texnologiyalarni belgilash;
- talabalarning dastlabki va yakuniy bilimlarini aniqlash va nazorat qilish;
- fanning asosiy metodologiyasini ko‘rsatib berish;
- talabaning mustaqil ta’limini tashkillashtirish;
- yakka va guruhlarda ishlash uchun nostandard topshiriqlar ishlab chiqish;
- muammoli o‘qitish usulidan keng foydalanish;
- har bir fanga ijobiy yondashishni shakllantirish;
- fanlararo integratsiyaviy yondashuvni ishlab chiqish;
- o‘quv jarayonini yakka va guruh holda tashkil etishni takomillashtirish;
- o‘quv mashg‘ulotida innovatsion loyihamalarini tuzish;
- teskari aloqalarni yo‘lga qo‘yish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мамажонов И.Г. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2020. – №6.
2. Исаев В.И. Воротилов. Образование взрослых: компетентностный подход. Учебно-методическое пособие. Санкт-Петербург ИОВ РАО 2005. – С. 92.
3. Круглова И.В. Наставничество как условие профессионального становления молодого учителя // Педагогическое образование и наука. – Москва: 2007. – № 1. – С.25-28.
4. В.Сластенин, И.Исаев, А.Мишенко, Е.Шиянов. Педагогика. Учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений / Москва: Издательский центр “Академия”, 2013. – С. 576.

5. O.U.Avlayev, S.R.Mirzayeva, Sh.R.Samarova. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Yangichirchiq book” nashriyoti, 2022. –B. 37
6. И.П.Подласый. Педагогика: учебник для вузов / Москва: Издательство “Юрайт”, 2024. – С. 376
7. М.Буланова-Топоркова. Педагогика и психология высшей школы: учебное пособие. / Москва: Издательство: Феникс, 2006. – С.63.
8. Равен, Джон. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация/ Издательство: Когито-Центр, 2002. – С.78.
9. Л.И.Вожович, А.Н. Леонтьев, Н.Г. Морозова, Д.В. Эльконин. Очерки психологии детей: младший школьный возраст / Москва: Академия педагогических наук РСФСР, 1950. – С.29
10. S.R.Zohidova. Bo‘lajak boshlang‘ish sinf o‘qituvshilarini kasbiy ijtimoiylashtirish jarayonlarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari. Diss.avtoreferati. S., 2019.
11. N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To‘rayev. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / O‘quv-metodik qo‘llanma. Т., 2015. – В. 108.
12. Н.В.Кузьмина. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. Москва: Высшая школа., 1990. – С. 57
13. Г.Н.Сериков Образование и развитие человека: монография. Москва: “Мнемозина”, 2002. – С.41